

O'ZBEKISTONNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA XORIJIY MAMLAKATLARNING ROLI



Xudayarov Rashid

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o'qituvchisi

Sattarova Madina

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, siyosiy va iqtisodiy sohada ulkan yutuqlarga erishdi. Respublikamizning jahon hamjamiyatida faol ishtirok etishi va O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama iqtisodiy siyosat yuritishi davlatimizning jahon xo'jaligida tutgan o'rni mustahkamlashning muhim shartidir. Ushbu maqolada O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida xorijiy mamlakatlarning roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, hukumatlararo komissiyalar, eksport, raqobat,

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, mahalliy tovarlar va xizmatlar eksporti hajmlarini oshirish, xorijiy mamlakatlardan turistik oqimni jalb qilish, respublikaning transport-tranzit imkoniyatlarini kengaytirish masalalarida davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralararo muvofiqlashtirish va hamkorlik tizimini samarali tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyalar (qo'mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning (keyingi o'rinlarda — hukumatlararo komissiyalar) O'zbekistonga oid qismlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qismidagi faoliyatning asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib belgilansin:

17. Hukumatlararo komissiyalar;
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
19. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi;
20. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi;
21. O'zbekiston Respublikasi xorijiy muassasalari.

O'zbekiston 2021-yilda ya'ni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" dagi Harakatlar strategiyasi loyihasida aytilganidek, Rossiya, Xitoy, AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, BAA va boshqa davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishni rejalashtirgan edi hamda bu ishni ijrosi uchun Tashqi ishlar vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar mas'ul qilib belgilangandi. Kuchli sa'y-harakatlar va qat'iy mas'uliyatlar natijasida bunga erishildi.

Shunga ko'ra, 2017-yilda Tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash va ularning xalqaro infratuzilmalari bilan integratsiyalashuviga qaratilgan dasturi ishlab chiqish strategik vazifa sifatida qo'yilmoqda. Jumladan, bu borada qaror ishlab chiqish ko'zda tutilgan bo'lib, unda quyidagilarni inobatga olish taklif etiladi:

- milliy transport logistika kompaniyalari o'rtasida raqobat darajasini oshirish, eksport korxonalarini uchun tariflarni pasaytirishni rag'batlantirish, avtomobil parklarini kengaytirish, yuk avtomobillarini olish uchun kreditlar olishni soddalashtirish;

- eksportga mo'ljallangan milliy mahsulotlar narxlarini raqobatbardosh qilish maqsadida yuklarni bir transportdan boshqasiga qayta yuklash punktlari sonini oshirish;

O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyasining kuchayishi ko'p jihatdan mazkur mamlakatlarning milliy manfaatdorligi bilan belgilanadi. Eng avvalo, O'zbekiston raqobat jihatidan nisbatan ustunlikka ega bo'lgan ishlab chiqarish sohalari, tovarlari - paxta xomashyosi, mashinasozlik, kimyo sanoati, qurilish materiallari sanoati, elektr energetikasi tovarlarining savdosini kengaytirishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, telekommunikatsiyalar, suv va energiya resurslaridan foydalanish, xalqaro turizm, hamkorlikdagi ekologik loyihalarni amalga oshirish borasida integratsiya aloqalarini kuchaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati iqtisodiy faoliyatning asosiy qismi sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu sohada davom ettirilayotgan islohotlar mahalliy va xalqaro bozorlarni mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash imkonini bermoqda. Masalan, yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka berilayotgan e'tibor hech bir davlatda berilmasa kerak. Masalan, ta'sischi orqali tashkil etilgan korxonalar tashqi faoliyati uchun ish boshlagandan dastlabki 10 yillik davrda bir qancha soliqlardan ozod qilib qo'ygan, ayniqsa bojxona to'lovlarining 0 % qiymatga tushirilgani ularni ham davlatimizni iqtisodiga ham juda katta foyda bo'ldi. Soliqlardan ozod qilib qo'yganiga sabab, birinchidan korxona o'zini yaxshi yo'lga qo'yib olishi, ikkinchidan eng katta xarajatlardan biri bu soliqqa ketadigan xarajatlarni o'rniga ishlab chiqarishni intensiv jihatdan rivojlantirishiga sharoit yaratib berishdir. Ular eksport qilayotgan mahsulotlar orqali mamlakatimizga katta miqdorda chet el valyutalari kirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi PQ-4297-sonli "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
2. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. 2017
3. Tursunova M.R., Abduqodirova N.A. "Indicators of foreign economic activity in Uzbekistan", "9th INTERNATIONAL CONFERENCE ON CULTURE AND CIVILIZATION" full texts book, march 15-16, 2021. p. 661-666, Tashkent Chemical Technological Institute.